

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

**«ZAMONAVIY DUNYODA
SOTSIOLOGIYA VA
AMALIY PSIXOLOGIYA
MUAMMOLARI»**

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI

M A T E R I A L L A R I

TOSHKENT – 2026

Mazkur to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida «Zamonaviy dunyoda sotsiologiya va amaliy psixologiya muammolari» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallaridan iborat.

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yilda xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnikaviy tadbirlar rejasiga muvofiq hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, xorijiy universitetlar hamda ilmiy tatqiqot markazlari hamkorligida tashkil etilgan.

Ilmiy to‘plamda respublikamiz hamda xorijiy mamlakatlar oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, sotsiologiya va amaliy psixologiya va ijtimoiy fanlar yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar hamda iqtidorli talabalarining ilmiy maqolalari jamlangan.

To‘plam uchun mas’ullar:

Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov filologiya fanlari doktori, Akademik.

Ilmiy muharrirlar: O. Jamoliddinova pedagogika fanlari doktori, professor; I. Aslonov psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: S. Mexammedova filologiya fanlari doktori, professor; R. Sabirova psixologiya fanlari nomzodi, professor (Qozog‘iston).

Tahrir hay’ati: V. Sattorov pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Boboyor To‘raev, psixolog, katta o‘qituvchi; F. Fayziyeva sotsiologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), Luiza Amirova katta o‘qituvchi; G. Jobborova katta o‘qituvchi, N. Razzoqova sotsiologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), N. Mannonova sotsiologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), F. Karimov katta o‘qituvchi.

Tuzuvchilar: I. Aslonov, F. Fayziyeva, N. Razzoqova, G. Jobborova, Luiza Amirova

Sahifalovchi va dizayner: Boboyor To‘rayev, psixolog, katta o‘qituvchi

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida 2026-yil 7 – may kuni “Zamonaviy
dunyoda sotsiologiya va amaliy psixologiya muammolari” mavzusida o‘tkazilayotgan
xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasiga

KIRISH SO‘ZI

Assalomu aleykum hurmatli xalqaro konferensiya ishtirokchilari, qadrli mehmonlar,
aziz olimlar, professor-o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilar!

Sizlarni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universitetida o‘tkazilayotgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya munosabati bilan
samimiy qutlaymiz.

Bugungi global taraqqiyot, jamiyat hayotida yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlar va
inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyojning ortishi ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan,
sotsiologiya va amaliy psixologiya sohalari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Jamiyat
taraqqiyoti, inson manfaatlari va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda mazkur sohalarning
ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot
strategiyasida inson qadrini ulug‘lash, ijtimoiy adolatni ta‘minlash va “ijtimoiy davlat”
tamoyilini hayotga tatbiq etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa o‘z
navbatida, raqobatbardosh, kreativ fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassislarni
tayyorlashni ta‘lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylantirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur xalqaro konferensiyaning maqsadi — sotsiologiya va
amaliy psixologiya sohasidagi dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilmiy
yondashuvlar almashinuvini ta‘minlash, xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash
hamda yangi ilmiy g‘oya va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Ayniqsa, konferensiyada Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Ozarbayjon,
Shri Lanka hamda boshqa davlatlardan ishtirok etayotgan olim va mutaxassislarning
qatnashishi uning xalqaro nufuzini yanada oshiradi. Bu esa ilmiy muloqot va tajriba
almashish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, mazkur anjuman yosh tadqiqotchilar uchun ham muhim ilmiy maydon
bo‘lib, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, xalqaro akademik muhitda tajriba
orttirishi va yangi ilmiy yo‘nalishlarni belgilab olishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishonamizki, konferensiya doirasida bildirilgan fikr-mulohazalar, ilmiy taklif va
tavsiyalar soha rivojiga munosib hissa qo‘shadi hamda kelgusidagi samarali hamkorlik
uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Barchangizga konferensiya ishida muvaffaqiyat, samarali muloqot va yangi ilmiy
yutuqlar tilaymiz.

**Rektor,
Akademik Shuhrat Sirojiddinov**

OILAVIY AJRIMLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTI VA FARZANDLAR RUHIYATIGA SALBIY TA’SIRI HAMDA OQIBATLARI

Karimov Farxod Toshtemirovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti “Psixologiya va
sotsiologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

f.karimov8282@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/QDCG1367](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/QDCG1367)

Annotatsiya: Ushbu maqola yurtimizda yil sayin ortib borayotgan oilaviy ajrimlar, ajrimlarning jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy ahvoli, ruhiy jarayonlari va bolalar tarbiyasiga salbiy ta’siri hamda ajrimlarning oqibatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Oilaning buzilishi bir oila a’zolarining taqdiri bilan belgilanmasligi, balki, bu salbiy jarayon ko‘paygan sari butun bir mamlakatning kelajagi va taqdirini belgilab berishi haqida bayon qiladi.

Kalit so‘zlar: oila qurish, ajrim, nikoh mustahkamligi, farzandlar tarbiyasi, ijtimoiy oqibatlar, sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat.

Abstract: This article is devoted to studying the increasing number of family divorces in our country year by year, their negative impact on social development, economic conditions, psychological processes, and child upbringing, as well as the consequences of divorce. It explains that the breakdown of a family is not limited to the fate of its members alone; rather, as this negative phenomenon grows, it can shape the future and destiny of an entire nation.

Keywords: starting a family, divorce, marital stability, child upbringing, social consequences, healthy family – healthy society.

KIRISH

Oila – inson hayotidagi eng muhim qo‘rg‘on, o‘zini baxtli his qiladigan, barcha qobiliyat va imkoniyatlarini namoyon qiladigan maskan hisoblanib, insonning shaxsiy rivojlanishida, ijtimoiylashuv va madaniy-ma’naviy hayotida asosiy o‘rinni egallaydi. Oila nafaqat birov bilan birga yashash yoki avlodni davom ettirish, farzandlarni tarbiyalash va keksayganda panoh topish vositasi, balki insonning ijtimoiy moslashuvini, qadriyatlarini va hissiy ehtiyojlarini qondirish, bemor bo‘lganda mehr va yordam oluvchi takrorlanmas maskandir.

Bugungi kunda oilaviy ajrimlar sonining ortib borayotgani jamiyat oldida turgan dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Oila jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, undagi barqarorlik nafaqat oila a’zolarining, balki butun jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini belgilaydi. Shu sababli ajrimlarning ko‘payishi alohida oilalar muammosi emas, balki keng ijtimoiy oqibatlarga ega jarayon sifatida qaralishi lozim.

Afsuski, so‘nggi yillarda oila qurishlar soni kamayishiga qaramasdan oilaviy ajrimlar soni yildan-yilga ortib borayotgani har bir insonni tashvishga solmasdan qolmaydi. Statistik ma’lumotlarga etibor qaratadigan bo‘lsak, 2018-yilda O‘zbekistonda 311,4 mingta nikoh tuzilgan, ajrimlar soni esa 32,3 mingdan oshgan. 2020-yilda esa 296,8 mingta oila qurilgan, buzilgan oilalar soni esa 28,2 mingtadan ortiqni tashkil etgan. 2022-yilda qayd etilgan raqamlar esa yanada tashvishlanarli, yani, 296,7 mingta oila qurilgan

bo'lsa, ajrimdagi oilalar soni esa 48,7 mingtadan ortiqni tashkil etgan. 2024-yilda esa 271,8 mingta oila qurilgan, ajrimlar soni esa 45,1 mingtadan ortiqni tashkil etgan. Ushbu raqamlar shuni anglatadiki, yurtimizda 2018-yildan 2024-yilgacha to'ylar soni 12,7 foizga kamaygan bo'lsa, oilaviy ajrimlar soni esa deyarli 1,5 baravar oshgan. Bu 2024-yili tuzilgan nikohlarning taxminan har oltitadan bittasi ajrashganini anglatadi.¹

Shuningdek, “O'zbekistonda 2025-yilda qayd etilgan nikohlar soni 2024-yilga nisbatan 4,7 mingtaga kamayib, 267,1 mingtani tashkid etdi. Mamlakatda nikohlar soni 2021-yildan beri kamaymoqda. Ajralishlar esa 46,9 mingtaga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 1,8 mingtaga ko'paygan”².

Ajrimlar sabablari esa asosan er-xotinlar fe'l-atvorining mos kelmasligi, bir-birlarini tushunmasligi, muloqot yetishmasligi, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, migratsiya jarayonlari, ma'naviy qadriyatlarning zaiflashuvi, uy-joyga ega emaslik hamda oila qurishga, farzand tarbiyalashga tayyor bo'lmaslik kabi sabablar keltirilgan.

Bundan tashqari, yoshlarning oilaviy hayotga yetarli darajada tayyor emasligi, mas'uliyat hissining sustligi ham muhim sabablar sirasiga kiradi. Shu boisdan, oila qurish yoshidagi yoshlar oila qurishdan oldin hayotga, farzand tarbiyasiga, er-xotinlik mas'uliyatiga va iqtisodiy mustaqillikka tayyor holda oila qurishlari oilaning mustahkamligida juda muhim hisoblanadi.

Ajrimlarning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Avvalo, oila institutning zaiflashuvi mamlakatda ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi. Mustahkam oilalar jamiyatning tayanchi hisoblanib, ularning buzilishi esa ijtimoiy muammolarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy jihatdan esa ajrimlar alohida yashash xarajatlarining ortishiga, ayniqsa ayollar va bolalarning moddiy ahvolining yomonlashishi va tang ahvolga tushib qolishiga sabab bo'ladi. Natijada esa aholi orasida kambag'allik darajasi oshishi va ijtimoiy tengsizlik kuchayib ketishiga olib kelishi mumkin.

Oilaviy ajrimlarning eng katta jabrlanuvchisi va salbiy ta'siri farzandlar ruhiyatida namoyon bo'ladi. Ota-ona ajralishi bolalarda kuchli stress, xavotir, qo'rquv va tushkunlik holatlarini keltirib chiqaradi. Ular o'zlarini bu dunyoda yolg'iz his qilishlari, o'ziga bo'lgan ishonchi pasayishi, o'z kelajagiga ishonchi susayishi mumkin. Ayrim hollarda bu holat bolalarning bilim olishiga, tarbiyasiga, xulq-atvoriga va kelajakdagi hayotiy qarashlariga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. To'liq bo'lmagan oilada ulg'aygan bolalarda odamlarga nisbatan nafrat, ijtimoiy moslashuv muammolari, agressivlik yoki, aksincha, tortinchoqlik, fikrini aniq ifoda etaolmaslik kabi holatlar kuzatilishi ehtimoli yuqori.

Shuningdek, ajrimlar demografik jarayonlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tug'ilish darajasining keskin pasayishi, yoshlar orasida nikohga bo'lgan ishonchning kamayishi, oila qurishlar sonining kamayishi, jinsiy zo'ravonliklarning ko'payishi jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy barqarorligiga tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ajrimlarning oldini olishda eng muhim jihat - muammolarni erta bosqichda aniqlash, anglash va ularni to'g'ri hal qilishdan iboratdir.

¹ <https://www.nchpl.uz/uz/posts/braki-razvody-uzbekistan>

² <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/29/nikoh/>

Avvalo, yoshlar orasida muloqot madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy tarmoqlardan kamroq foydalanish juda muhim. Ko‘plab ajrimlar oddiy tushunmovchilik, er-xotinlar chin dildan suhbatlashmaslik natijasida yuzaga keladi. Er-xotin bir-birini tinglashni, tushunishni, o‘zlarini bir-birlarining o‘rniga qo‘yib ko‘rib impatik his qilishni, his-tuyg‘ularini ochiq va hurmat bilan ifoda etishni o‘rganishi kerak.

Bundan tashqari, nikohlanuvchilarning oila qurishga har tomonlama tayyorgarligi ham katta rol o‘ynaydi. Yoshlar turmush qurishdan oldin oilaviy hayotning mas‘uliyatini, moliyaviy va ruhiy tomonlarini tushunib yetishi zarur. Bu kelajakdagi nizolarni va ajrimlarni kamaytiradi.

Yana bir muhim omil yoshlarda moliyaviy barqarorlik va oilaviy sarf-xarajatlarni rejalashtirish, isrofgarchiliklarning oldini olish va tejab-tergash ko‘nikmalarini yoshlikdan shakllantirish zarur. Hozirgi kunda oilalardagi ko‘plab nizolar iqtisodiy qiyinchiliklar, qarz yuki va ortiqcha havaslar uchun olingan kreditlar sababli kelib chiqadi. Byudjetni er-xotinlar birga rejalashtirishi, xarajatlarni doimiy muvozanatda ushlashi, keraksiz chiqimlardan saqlanishi oilaviy tinchlikni mustahkamlaydi.

Modomiki, oilalarga o‘z vaqtida ko‘rsatilgan psixologik yordam va maslahatlar ham oila barqarorligida samarali vosita hisoblanadi. Oilaviy nizolar kuchayib ketmasdan, ajrim yoqasiga kelib qolmasdan oldin mutaxassisga murojaat qilish ko‘plab ajrimlarning oldini olishi mumkin.

Shuningdek, er-xotinlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonch oilaning mustahkam poydevori hisoblanadi. Xiyonat, befarqlik yoki hurmatsizlik, mensimaslik, quda-andalar orasida gap tashish ajrimga olib keluvchi asosiy omillardan biridir. Shuning uchun yosh kelin-kuyovlar bu qadriyatlarni asrashlari juda ham muhim.

Notinch oilalarda voyaga etayotgan farzandlarning manfaatini hisobga olish ham zalvorli ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar ko‘pincha shaxsiy kelishmovchiliklarni ustun qo‘yib, tortishuvda g‘olib chiqish uchun bolalardan qurol yoki himoya sifatida foydalanishadi. Bu amallarni bajarishdan avval ajrimning bolalarga ta‘sirini ham chuqur o‘ylash zarur.

Vanihoyat, jamiyat va davlat qo‘llab-quvvatlovi ham muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy maslahat markazlari, tarbiyaviy dasturlar va ijtimoiy yordam tizimlari ajrimlar sonini kamaytirishga yordam beradi.

Mazkur muammolarning oldini olish uchun keng miqyosli yondashuv lozim. Eng avvalo, nikoh yoshidagi yoshlarni oilaviy hayotga puxta tayyorlash, ularda mas‘uliyat, muloqotchanlik, sabr-toqat va o‘zaro bir-biriga hurmat kabi fazilatlarini shakllantirish juda ham muhimdir. Oilalarda sog‘lom muloqot va sog‘lom turmush tarzi muhitini yaratish, nizolarni tinch va konstruktiv yo‘l bilan hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak. Shuningdek, ajrimlarni tartibga soluvchi qonunlarni zamon talablari va milliy mentalitetdan kelib chiqib takomillashtirish, mahallalarda psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish, oliy o‘quv yurtlarida oilaviy psixologlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, maktablarda “oilaviy hayotga tayyorgarlik” darslarini tashkil etish, ota-onalar uchun psixologik treninglarni yo‘lga qo‘yish, davlat tomonidan yosh oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, chekka qishloq hududlarida ham barqaror daromad manbai bo‘lgan yangi ish o‘rinlari yaratish ham ajrimlar sonini kamaytirishga so‘zsiz ijobiy ta‘sir o‘tkazadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oilaviy ajrimlar nafaqat bir oila doirasidagi muammo, balki har qanday rivojlangan davlat va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Ayniqsa, ajrimlarning oiladagi farzandlar ruhiyatiga yetkazadigan zarari hech bir mezon bilan o'lchab bo'lmaz darajada uzoq muddatli salbiy oqibatlariga hamda ijtimoiy silkinishlarga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, oilalarni doimiy mustahkamlab borish, oilaviy ajrimlarning imkon boricha oldini olish va sog'lom tanli va dunyoqarashli avlodni tarbiyalash hozirgi jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan eng birinchisi bo'lib qolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.nchpl.uz/uz/posts/braki-razvody-uzbekistan>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/29/nikoh/>
3. Shoumarov G'.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A., Akramova F.A. Oila psixologiyasi. Toshkent: TDPU nashri, 2011. B. 150.
4. Abdullayeva D., Yarulov R., Atabaeva N. Oila psixologiyasi. Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015. B. 256.
5. To'lipova, D., & boshq. (2023). Oila qurishda nikoh oldi omillari va motivlarining etnopsixologik xususiyatlari. Bestpublication.org. B. 15. <https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/7645>
6. Rahmatova, N. A. (2023). Oilaviy munosabatlar: ajrim va uning sabablari. Qarshi davlat universiteti. B. 20. <https://oila-ilmiy.uz/index.php/society-gender-family/article/view/177>

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI

Akademik, Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (O‘zbekiston)3

TA‘LIM VA SOTSIOLOGIYA: JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI SIFATIDA

Alikariev Nuriddin Safarkarievich (O‘zbekiston)4

СОЦИОЛОГИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: АЛГОРИТМИЧЕСКАЯ ВЛАСТЬ, ЦИФРОВОЕ НЕРАВЕНСТВО И НОВАЯ СОЦИАЛЬНОСТЬ

Сулейманлы Абульфаз Давуд оглы (Turkiya)8

CURRENT ISSUES IN MODERN SOCIETY AND SOCIOLOGY

Aboobacker Rameez (Malayziya)17

СМЕШАННЫЕ МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ СОЦИОЛОГИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ

Həsənov Rafael Musa Oğlu (Azərbaycan)21

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ИДЕНТИЧНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Васина Ольга Владимировна (Rossiya)25

GLOBALLEŞME DEVRİNDE CEMİYETİN İMARİ VE İSTİKRARI İÇİN MANEVIYATIN EHEMİYETİ

Kemal Yavuz Ataman (Turkiya)34

ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИОЛОГИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Исмайлова Севиль Айдын кызы (Ozarbayjon)41

MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY – PSIXOLOGIK OMILLARI

Aslonov Ilkhom Nizomovich (O‘zbekiston)44

SIYOSIY YETAKCHILARDA BOSHQARUV TAJRIBASI KOMPENSATSIYASI

To‘rayev Boboyor Baxtiyarovich (O‘zbekiston)47

KO‘RINMAS INQIROZ: O‘ZGARAYOTGAN JAMIYATDA ISHONCH, PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK VA IJTIMOY MOSLASHUV

Ziyodaxon Abduboriyevna Rasulova50

1-SHO‘BA: ZAMONAVIY JAMIYAT VA SOTSIOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI

SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING HUQUQIY VA ETIK ASOSLARI: SOTSIOLOG MAQOMI VA KASBIY HIMOYA MUAMMOLARI Fayziyeva Farogat Baxtiyorovna (O‘zbekiston)	54
VOYAGA ETMAGANLARNING KRIMINOGEN OMILLARINI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIIY MEXANIZMLARI Akramov Xasan Furkatovich (O‘zbekiston)	58
“IJTIMOIIY HIMOYA” KATEGORIYASINI ILMIY TALQINLASHDA MULTIDISSIPLINAR SIMBIOZ SAMARADORLIGI Xayriniso Xusanova (O‘zbekiston)	62
BOLALAR UCHUN IJTIMOIIY HIMOYA: AMALIYOT VA NAZARIY YONDASHUVLAR O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLAR Utamurodov Alisher Alimjonovich (O‘zbekiston)	66
TA‘LIM SIFATI MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHDA SOTSIOLOGIYANING ROLI Alikariyeva A‘loxon Nuriddinovna (O‘zbekiston)	72
SOSIOLOGRAFIYA - SOTSIOLOGIK FANLARDA ILMIY TADQIQOTLARNING YANGI YO‘NALISHI Yunusov Kamaldin Abzalovich (O‘zbekiston).....	76
SPORT SOTSIOLOGIYASI: RUS OLIMLARINING BA‘ZI YUTUQLARI Gonashvili Aleksandr Sergeevich (Rossiya)	80
MEHNAT BOZORIDA “BANDLIK” TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHIYATI Ravshan Islambaev (O‘zbekiston).....	83
MARKAZIY OSIYODA XAYRIYA FENOMENING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI Sherzod Boboyev (O‘zbekiston)	87
THE ROLE OF POLITICAL PARTIES IN THE TRANSFORMATION OF THE SOCIAL PICTURE OF THE MODERN WORLD Raximova Mashkura Inamjanovna, Satieva Sholpan Serikbosynovna.....	89
MAKTAB O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA BULLINGNING PEDAGOGIK PROFILAKTIKASI Axrorov Zohidjon Zokirjonovich (O‘zbekiston)	92

INTELLYGENTCYANING YANGILANISHI: YANGI O‘ZBEKISTON TIZIMI ASOSSIDA MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY AHAMIYATI Qutimova Gulnara Tatlimuratovna (O‘zbekiston)	95
O‘ZBEKISTONDA YOSH RAHBAR KADRLAR ZAHIRASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI Xakimova Anora (O‘zbekiston)	98
O‘ZBEK JAMIYATINING MADANIY PORTRETI Ibragmov Jasurbek Ilxomjon o‘g‘li (O‘zbekiston)	101
ZAMONAVIY JAMIYAT VA SOTSIOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI YAPONIYA JAMIYATIDA QADRIYATLAR MASALASI Mirsoliyeva Nargiza (O‘zbekiston)	104
ГЕНДЕРНЫЕ РОЛИ И «ВТОРАЯ СМЕНА»: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УСТАНОВОК СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ КАЗАХСТАНА Максимова Дарья Викторовна (Qazaqstan)	106
ZAMONAVIY TA’LIMDA NAZARIY VA AMALIY TAYYORGARLIK UYG‘UNLIGI Xaytmetova Nasiba Shuhrat qizi (O‘zbekiston)	109
YOSHLAR ORASIDA TIL TANLOVI VA IJTIMOIIY-MADANIY IDENTIKLIK MUNOSABATLARI Dumaxonova Shodixon Iskandar qizi (O‘zbekiston)	114
ZAMONAVIY JAMIYAT VA SOTSIOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI Ómirbaeva Aziza Bekbergen qizi (O‘zbekiston)	117
ONLAYN O‘YINLAR O‘SPIRINLARNING KUNDALIK O‘QUV INTIZOMI VA O‘ZINI BOSHQARISH STRATEGIYALARIGA TA’SIRI Egamberdiyev Jamol Berdimurodovich, Ahmedova Muqaddas Husan qizi (O‘zbekiston)	119
“BED ROTTING” TUSHUNCHASI VA UNING INSONGA SALBIY TA’SIRINING IJTIMOIIY OQIBATLARI Xudoyberganova Durdigul Otabek qizi (O‘zbekiston)	123
ZAMONAVIY JAMIYATDA ANOMIYA FENOMENI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI Bobojonova Rihsixon Farhod qizi (O‘zbekiston)	126

CHIKAGO SOTSIOLOGIK MAKTABINING SOTSIOLOGIYA FANIDAGI
O‘RNI VA ILMIY MEROSI

Ismatullayeva Maftuna Farhodjon qizi (O‘zbekiston) 129

GLOBALASHUV SHAROITIDA SOTSIAL NAZORAT
MEXANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI

Qodiraliyeva Azizaxon Azimjon qizi (O‘zbekiston)..... 134

ABU NASR FOROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARINING
“EDIAL JAMIYAT” VA BOSHQARUV TAMOIYILLARI :NAZARIY TAHLIL
VA ZAMONAVIY TALQIN

Ne‘matova Zilola Shavkat qizi (O‘zbekiston) 138

DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI FAOLIYATINI “FUQAROLARGA
XIZMAT QILISHGA YO‘NALTIRISH” TAMOIYILI

Jumanazarova Zuhra Shaxriyor qizi (O‘zbekiston) 141

BOLALARGA NISBATAN OILAVIY ZO‘RAVONLIK HOLATLARIDA
IJTIMOIY PROFILAKTIKA ISHINI TAKOMILLASHTIRISH

Adilova Sevara Norbuta qizi (O‘zbekiston)..... 146

ЦЕННОСТНЫЕ ОРИЕНТАЦИИ, УРОВЕНЬ ПРИТЯЗАНИЙ, И СТЕПЕНЬ
УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ ПРОФЕССИЕЙ (на материале исследования
сотрудников одной из фирм Санкт-Петербурга)

Лысенко Елена Михайловна, Хлюпин Владимир Алексеевич 154

IJTIMOIY XIZMATLAR VA ULARNING AHOLI FAROVONLIGINI
OSHIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Mag‘murova Dilbar (O‘zbekiston) 164

2-SHO‘BA: AMALIY PSIXOLOGIYA VA ZAMONAVIY DUNYO

ERTA NIKOH VA SHAXSNING EMOTSIONAL HAMDA IJTIMOIY
YETUKLIGI MUAMMOLARI

Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O‘zbekiston) 171

ДИСКУССИИ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ, ПРОБЛЕМАХ И
БУДУЩЕМ ПСИХОЛОГИИ

Саврацкая Елена Юрьевна 173

EGIZAKLARNING O‘QUV MOTIVATSION JARAYONDAGI PSIXOLOGIK
INTELEKTUAL XUSUSIYATLARI.

Toyirova Shahlo Izatovna (O‘zbekiston) 179

MONOZIGOTA VA DIZIGOTA EGIZAKLARNI PSIXOLOGIK FARQLASHDA
IJTIMOIIY-GENETIK OMILLAR TA’SIRI.

Toyirova Laylo Izatovna, Toyirova Shahlo Izatovna (O‘zbekiston) 181

O‘SMIR SHAXSI VA UNING IJTIMOIIYLASHUVIDA BULLINGNING
PSIXOLOGIK OQIBATLARI

Amirova Luiza Maratovna (O‘zbekiston) 184

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING MILLIY
XUSUSIYATLARI VA OQIBATLARI

Karimov Farxod Toshtemirovich (O‘zbekiston) 186

OILAVIY AJRIMLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTI VA FARZANDLAR
RUHIYATIGA SALBIY TA’SIRI HAMDA OQIBATLARI

Karimov Farxod Toshtemirovich (O‘zbekiston) 190

PSIXOSOMATIK KASALLIKLARNI RIVOJLANTIRISHDA STRESSNING
PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Giyasova Nozimaxon Qaxramon qizi (O‘zbekiston)..... 193

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GIPERAKTIVLIKNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Hakimova Fazolat Xoshimovna (O‘zbekiston) 195

МУҒАЛИМДЕРДИҢ КӘСІБИ СТРЕССИ ЖӘНЕ ОНЫ БАСҚАРУ ЖОЛДАРЫ

**Рахимбекова Жансая Шенгелбаевна, Исина Салтанат Сериккалиевна
(Qazaqstan) 201**

КОГНИТИВНЫЕ СТИЛИ И УСПЕШНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО
ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Жапаров Исмаил Сунгатович, Алимбаева Роза Тогайовна (Qazaqstan)..... 203

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ДОСТИЖЕНИЯ В
ГУМАНИТАРНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЯХ

Джейхуна Дамирова-Махмудова (Ozarbayjon) 207

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫЕ ФАКТОРЫ
УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ НОВОГО
УЗБЕКИСТАНА

Ходжаева Дильновоз Джумоевна (O‘zbekiston)..... 211

AMALIY PSIXOLOGIYA NUQTAI NAZARIDAN SHAXS ERKINLIGI VA
IJTIMOIIY BOSIM MUAMMOSI

**Urishboyeva Gulsanam G‘ulom qizi, Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi
(O‘zbekiston)..... 215**

KLINIK PSIXOLOGIYADA PSIXOPROFILAKTIK, PSIXOKORREKSION VA REABILITATSION FAOLIYATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI Kasimova Zilola Olimjon qizi, Nishonboeva Mahbuba Asqar qizi (O‘zbekiston).....	218
KO‘RISH IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARNING TA‘LIM MUHITIGA PSIXOLOGIK MOSLASHUV OMILLARI Qo‘chqorova Dilnoza Sherboboyevna (O‘zbekiston)	222
ZAMONAVIY BOLALAR VA AGRESSIYA: VIRTUAL MUHITNING PSIXOLOGIK TA‘SIRI Suyunova Dilnura Samar qizi, Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O‘zbekiston)...	224
KOGNITIV XATOLAR VA YO‘QOTISH QO‘RQUVI: Daniel Kahneman bo‘yicha qarorlar psixologiyasi Turg‘unova Diyora Ne‘mat qizi, Aslonov Ilhom Nizomovich (O‘zbekiston)	226
OILADA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNI TA‘MINLASHGA YO‘NALTIRILGAN EMPATIYANING AHAMIYATI Ismoilova Sarvinoz Ne‘mat qizi (O‘zbekiston)	229
YOSH OILALARDA GENDER TENGLIKKA OID IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TASAVVURLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI Abduqayumova Gulnoza Karimjon qizi, Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O‘zbekiston).....	232
ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA O‘QUV MOTIVATSIYA BILAN BOG‘LIQ PSIXOLOGIK DETERMINANTLAR (O‘SMIR YOSHI MISOLIDA). Norboyeva Sevinch Zafar qizi, Toyirova Shahlo Izatovna (O‘zbekiston).....	235
TALABALARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUVI VA GENDER TENGLIK MUAMMOLARI: XALQARO TADQIQOTLAR TAHLILI Shakarova Nafosat Shavkatovna (O‘zbekiston)	239
OILAVIY MUNOSABATLAR KONTEKSTIDA ZO‘RAVONLIKKA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR Rasulova Iroda Mansurovna (O‘zbekiston)	241
STRESS – PSIXOSOMATIK BUZILISHLAR Xasanova Sevinch Ravshanbek qizi, Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O‘zbekiston).....	244
PSIXOLOGIYDA EKZISTENSIAL INQIROZLAR FENOMENI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLDAGI MASALALAR Haydarbek Xamdamov (O‘zbekiston)	247

ZAMONAVIY JAMIYATDA AMALIY PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI Yo'ldosheva Iroda To'lqin qizi, Amirova Luiza Maratovna (O'zbekiston).....	252
O'SMIRLARDA SUITSIDIAL XULQ -ATVOR SIXOPROFILAKTIKASI Yoqubova Sevinch, Amirova Luiza Maratovna (O'zbekiston).....	255
ZAMONAVIY JAMIYATDA AMALIY PSIXOLOGIYA: NAZARIYA, AMALIYOT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI Shog'darov Hayitboy Abdumalik o'g'li (O'zbekiston).....	258
AVTORITAR OTA TARBIYASI VA PSIXOLOGIK TRAVMA SHAKLLANISH MEXANIZMLARI Omiljonova Sevinch Umid qizi, Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi (O'zbekiston) .	262
KOGNITIV JARAYONLARNI O'RGANISHDA METODIKALARNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI Polvonova Sohiba Bekimmat qizi (O'zbekiston)	265
TALABALARDA O'QUV MOTIVATSIYASI DARAJASI VA IJTIMOY TARMOQLARDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARINI O'RGANISH METODIKASI O'runboyeva Zilola Abdivahob qizi (O'zbekiston)	268
O'LMAS UMARBEOVNING “ODAM BOLISH QIYIN” ASARIDA INSON RUHIY KECHINMALARINING IFODALANISHI Meyliqulova Siddiqa Akbar qizi, Gulliyeva Yulduzxon Yuldoshovna (O'zbekiston).....	270
3-SHO'BA: ZAMONAVIY JAMIYATDA IJTIMOY ISH: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR	
ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLAR ORASIDAGI IJTIMOY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI Razzakova Nargis Yuldashevna, Muminova Fayyoza Abdujalol qizi (O'zbekiston).....	274
IJTIMOY ISH KASBIY FAOLIYATIDA AFFERMATSIYA USULIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI Raxmonov D.A. (O'zbekiston)	277
O'ZBEKISTONDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH VA IJTIMOY SIYOSATNI RIVOJLANTIRISH Kamalova Xatira Sabirovna (O'zbekiston)	281

OILADAGI ER-XOTINLARNING IJTIMOYIY MUNOSABATLARNI SOTSIOLOGIK OMILLARI Gulmurodov Abbos Gulmurod o‘g‘li (O‘zbekiston).....	286
«ҚАЗІРГІ ҚОҒАМДАҒЫ ТҮРМЫСЫ ТӨМЕН ОТБАСЫЛАРМЕН ӘЛЕУМЕТТИК ЖҰМЫС: МӘСЕЛЕЛЕРІ МЕН ШЕШІУ ЖОЛДАРЫ» Табысбек Назира, Әділмұрат Жанерке (Qazaqstan)	291
O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR Donaboyeva Husnora G‘ulomali qizi (O‘zbekiston)	294
XORIJ DAVLATLARIDA UMUMIY TA‘LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO‘RAVONLIGI PROFILAKTIKASI Karimova Maftuna Karimberdiyevna (O‘zbekiston).....	297
ALISHER NAVOIYNING IJTIMOYIY KO‘MAKKA OID IJTIMOYIY-AXLOQIY G‘OYALARI Murodova O‘g‘iloy Abdullajon qizi (O‘zbekiston)	302
BOLALARGA NISBATAN OILAVIY ZO‘RAVONLIK HOLATLARIDA IJTIMOIY PROFILAKTIKA ISHINI TAKOMILLASHTIRISH Adilova SevaraNorbuta qizi (O‘zbekiston).....	306
NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNING IJTIMOYIY INTEGRATSIYASIDA INKLYUZIV TA‘LIMNING O‘RNI VA MUAMMOLAR Temirova Xurshida Turobovna (O‘zbekiston)	315
KEKSALAR BILAN IJTIMOYIY ISH OLIB BORISHNING ISTIQBOLLARI Xidirnazarova Farida Ulug‘bek qizi (O‘zbekiston)	321
INKLYUZIV TA‘LIM TIZIMIDA IJTIMOYIY ISHCHINING ROLI Malikova Malikaxon Mo‘minjon qizi (O‘zbekiston)	324
SOCIAL INTEGRATION OF YOUTH WITH DISABILITIES THROUGH SPORTS IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN Niyazova Olga Yurevna (O‘zbekiston).....	327
MAHALLA FUQAROLAR YIG‘INIDA IJTIMOYIY ISHCHI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI O‘rinboyeva Rahima Oybek qizi (O‘zbekiston)	331
YOSHLAR INTERNETGA QARAMLIGI — ZAMONAVIY JAMIYATDAGI YANGI IJTIMOYIY MUAMMO SIFATIDA Artikbayeva Nazokat Baxtiyor qizi (O‘zbekiston)	335

4-SHO‘BA: TA’LIM-TARBIYA METODOLOGIYASI VA PEDAGOGIK MUAMMOLAR

МЕТОДИКА ПОЭТАПНОГО ФОРМИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ НАВЫКОВ У ОБУЧАЮЩИХСЯ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА Быстрова Юлия Александровна, Шеманов Алексей Юрьевич, Самсонова Елена Валентиновна (Россия)	339
SELF-CONSCIOUSNESS IN NATIONAL EDUCATION AS A NATIONAL SECURITY ISSUE. (Based on the National Education Strategy of the Republic of Azerbaijan) Sardarova Mehriban Naghi gizi (Ozarbayjon)	342
IJTIMOIIY-GUMANITAR FANARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI Jamoldinova Odinaxon Rasulovna (O‘zbekiston)	346
UZLUKSIZ TA'LIMDA O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY SHERIKCHILIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorov Vaxob Naqshbandovich (O‘zbekiston)	356
UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA TA'LIM OLUVCHILARDA IJTIMOIIY-MA'NAVIIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH Sattorov Vaxob Naqshbandovich (O‘zbekiston)	359
SIRLI OSMONDA BIR MING O‘N SAKKIZTA YULDUZ G‘.Abduqodirov, S.Boltaboyev (O‘zbekiston)	362
INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGI: NAZARIY ASOSLAR, AMALIY YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR Omarova Zeviniso Kasimovna (O‘zbekiston)	365
EKOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI VA ZARURIYATI ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA Jobborova Gulnoza Kadamovna (O‘zbekiston)	367
ADABIYOT FANIDA “PINBOARD” METODIK USULI VA “KAHOOT” VOSITASIDAN FOYDALANISH Jobborova Dilfuza Qadamovna (O‘zbekiston)	370
ART-PEDAGOGIKA ASOSIDA MILLIY MADANIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI Gulliyeva Yulduzxon Yuldoshovna (O‘zbekiston)	376

MILLIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA ART-PEDAGOGIKANING O‘RNI VA AHAMIYATI Yuldoshev Umidjon Yuldoshevich (O‘zbekiston)	378
O‘ZBEK AN‘ANAVIY XONANDALIGINING RIVOJLANISH TARIXI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI Jumayeva Mohiniso Sa‘dullayevna (O‘zbekiston)	381
UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING TEXNIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI B.J.Lafasov (O‘zbekiston)	383
AMALIY MASHG‘ULOTLAR VA TEXNIK TAYYORGARLIKNING INTEGRATSIYASI: TEXNOLOGIK TA‘LIM O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING ILMIY VA METODOLOGIK ASOSLARI D.A.Qodirov, A.Tumanova (O‘zbekiston)	386
MUSIQA TA‘LIMI TALABALARIGA QASHQAR RUBOBIDA IJROCHILIK USHLARINI O‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI Rahmatov Bahrom O‘tkirjon o‘gli (O‘zbekiston)	389
GOSPITAL TA‘LIM TIZIMI: UZOQ MUDDAT DAVOLANAYOTGAN BOLALAR UCHUN TA‘LIM MUHITINI TASHKIL ETISH Hasanova Gulbahor Nurmuhammad qizi, Jobborova Gulnoza Kadamovna (O‘zbekiston)	392
FORTEPIANO IJROCHILIGI ORQALI MUSIQA YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI Ismatullaeva Shoxsanam Rixsilla qizi (O‘zbekiston)	395
FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONANING O‘RNI Rustamova Aziza Akmal qizi, Jobborova Gulnoza Kadamovna (O‘zbekiston) ...	389
FORTEPIANO IJROCHILIGI ASOSIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA IJRO TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI Normurodova Lobar Mamasoliyevna (O‘zbekiston)	405
MAQOLLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI VA JUVONMARDLIK FAZILATI Sattorov Vaxob Naqshbandovich, Maxkamova Muxtasaroy Abbosbekovna (O‘zbekiston)	408

PEDAGOGIK FAOLIYATNI MODERNIZATSIYALASHDA SUN’IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINING O’RNI Ziyoyeva Maxfuza Soataliyevna (O‘zbekiston).....	411
SUN’IY INTELEKT VOSITALARINING FORTEPIANO IJROCHILIGIDAGI O’RNI VA IMKONIYATLARI Lyatifova Zubayda Refatovna (O‘zbekiston).....	414
AMALIY TAJRIBA: INTEGRATSIYALASHGAN DARSLAR NATIJALARINI TAHLIL QILISH Yuldosheva Madina Malik qizi (O‘zbekiston)	417
BLENDED LEARNING (ARALASH TA’LIM) MODELINING O’QUV MOTIVATSIYASIGA TA’SIRI Vaxobova Zilola Mirxalilovna (O‘zbekiston).....	420
XORAZM MAQOMLARIDA AYTIM YO‘LINING SHAKLLANISHI VA IJROCHILIK MEROSI Taxirov Bunyodbek Dilshodbek o‘g‘li (O‘zbekiston)	423
O‘ZBEK XALQ MUSIQASI VA UNING MUSIQA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI Raximjonov Kamoliddin Karim o‘g‘li (O‘zbekiston).....	426
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ САМОРЕАЛИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ Raxmatova Mavzuna Maxmud qizi (O‘zbekiston)	428
YURAK-QON TOMIR KASALIKLARI VA STRESSNING BOG‘LIQLIGI Axmedova Marjona Umarbek qizi, Omarova Zeviniso Kasimovna (O‘zbekiston).....	432
SHAXS SHAKLLANISHIDA OILANING ROLI Napasova Nigina Nodir qizi, Hakimova Fazolat Xoshimovna (O‘zbekiston).....	435
1945–1990-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM-TARBIYA Nafosat Hayitmurodova Javlon qizi, Gulliyeva Yulduzxon Yuldoshovna (O‘zbekiston).....	438

5-SHO‘BA: TURKIY DAVLATLAR: IJTIMOIIY TARAQQIYOT VA INKLYUZIV MADANIYAT

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНО-ГУМАНИТАРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере ОТГ) Ф.Х.Усарова (O‘zbekiston)	441
--	------------

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI VEKTORIDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATINING O‘RNI Mannanova Nilufar Xodjakbarovna (O‘zbekiston).....	445
СОЦИАЛЬНЫЙ КОДЕКС РК КАК ПРАВОВАЯ БАЗА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ КАЗАХСТАНА Буриева Хайрия Амануллаевна, Юсупова Дилдора Журакуловна (O‘zbekiston).....	448
ГЕРОИЗМ И САМООТВЕРЖЕННОСТЬ НА ФРОНТАХ ВОЙНЫ Аберкулов Дилшод Нурбаевич (O‘zbekiston).....	453
RAQAMLI DIPLOMATIYANING XALQARO MAYDONDAGI MAVQEYINI MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) B.X.Allamurodov (O‘zbekiston).....	458
O‘ZBEKISTONNING INTELLEKTUAL MULK MUHOFAZASI SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK TARIXI VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI Abdusattarova Nargiza Baxtiyorovna (O‘zbekiston)	460
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA YAPONIYA TASHQI SIYOSATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI Razikova Dilorom Kadirovna (O‘zbekiston)	465
FALSAFA TA’LIMIDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MODEL: STRUKTURASI VA KOMPONENTLARI Raxmatov Rafiq G‘ayratovich (O‘zbekiston)	470
TURKIY DAVLATLARDA ETNOTURIZMNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI Mannanov Erkin (O‘zbekiston).....	473
ТУРИСТЫ КАК СОВРЕМЕННЫЕ КАРАВАНЫ Ражабов Жамшид Рустам угли (O‘zbekiston).....	476
РОЛ ОРГАНИЗАЦИИ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРНО-ГУМАНИТАРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН Очилов Акрам (O‘zbekiston)	480

ZAMONAVIY DUNYODA SOTSIOLOGIYA VA AMALIY PSIXOLOGIYA MUAMMOLARI

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
M A T E R I A L L A R I**